

SAID AHMADNING “SAROB” HIKOYASI HAQIDA O‘YLAR (Thinking about the story "Mirage" by Said Ahmad)

Hoshimjon Ahmedov

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek adabiyotini
o‘qitish metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi
Ahmedov.hoshim60@gmail.com

Annotasiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Xalq yozuvchisi Said Ahmadning “Sarob” hikoyasi tahlil qilingan. Uning mavzusi, syujet o‘ziga xosligi, boshqa badiiy jihatlar haqida xulosalar beriladi. Jumladan hayot va badiiy haqiqat masalalari to‘g‘risida mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: Said Ahmad, “Sarob” hikoyasi, badiiy tahlil.

Annotation. This article analyzes the story of the people's writer of Uzbekistan Said Ahmad "Sarob". Conclusions are drawn about its subject matter, originality of the plot and other artistic aspects. In particular, questions of everyday life and artistic reality are commented on.

Keywords: Said Ahmad, story "Sarob" ("Mirage"), artistic analysis.

Kirish.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotini Said Ahmad ijodisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. XX asrning o‘rtalari va ikkinchi yarmi hamda XXI asr boshlari Said Ahmad ijodining sermahsul davrlari hisoblanadi. Jumladan uning trilogiyasi – “Ufq” umume’tirofqa ko‘ra badiiy – estetik saviyasi juda yuqori deya tan olingan romanlar. [1]. Taniqli o‘zbek adabiyotshunoslarining deyarli barchasi yozuvchi ijodi haqiga u yoki bu darajada murojaat qilishgan. 1965-yilda “Said Ahmad bundan ko‘p yillar muqaddam qo‘liga adabiyot tanburini olib chertganda qo‘li kelishganini ko‘rib, yaxshi sozanda bo‘lib, yaxshi-yaxshi mashqlar chalishini orzu qilgandik. Shu orzu ushlab kelayotibdi”, –deb yozgandi o‘z davrida Abdulla Qahhor.[2. “Haq so‘zning kuchi”, 217-bet]. Ozod Sharafiddinov esa “Xo‘sh, Said Ahmad san‘atini qanday tariflasi bo‘ladi? Said Ahmad inson xarakteriga, uning ruhiyat olamiga chuqur kira borishdan, uning milliy ranglarini ilg‘ab olishdan, uni ezgulik va yaxshilik, ahillik va oliyjanoblik sari undashdan, hajviyotni ulug‘lashdan tarkib topuvchi san‘atdir” –deb yozgan edi. [3. O. Sharafiddinov, “Ijodni anglash baxti”, 355-bet]. Biz adibning mustaqillikdan keyin yozilgan “Sarob” hikoyasi tahliliga to‘xtalamiz.[4. Said Ahmad. “Kiprikdagi tong”, 175-190-betlar)

Muammo tadqiqi. Dastavval hikoyani manzur qilgan *birinchi* jihat – sarlavha haqida. Yaxshi asar – sarlavhadan boshlanadi. Hikoyaga qo‘yilgan nom asar g‘oyasini, yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan, tasvirlagan badiiy voqelikka mos. Ya‘ni, asar – real hayotiy voqelikka asoslangan. Bu yerda mubolag‘a yoki bo‘rttirish deyarli yo‘q. Mash‘um qatag‘on davri tasvirlari sovet davrining voqeligi. Afsonaviy SSSR davlati va‘da qilgan varovonlik aslida *sarob* bo‘lib chiqqani hikoya g‘oyasi. *Ikkinchidan*, hikoyaga tanlangan epigraf ham juda o‘rinli tanlangan: “Ota qarg‘ishi misoli o‘q – u oxiratda emas, shu dunyoning o‘zida nishonga tegadi” (Buxorolik 100 yil yashagan Usta Amin bobo o‘gitlaridan). Ya‘ni hikoyada otani norizo qilgan, undan voz kechgan oqpadar o‘g‘il fojiasi tasvirlangan. Darhaqiqat, otani ulug‘lash, uni nafratiga qolish ilohiy kitoblarda qoralanadi. Asli hayotda ham padarni norizo qilishning natijasi xayrli bo‘lmasligi haqiqat. *Uchinchi jihati* – qahramonlarning ismi ham mos ravishda tanlangan. Olimjon ismiga yarasha chuqur bilim ega, tarixni obdon biladigan, ziyoli-madaniyatli inson. Millat uchun qayg‘uradigan, milliy tarixni chuqur biladigan chinakam mutaxassis. “Yoshi yetmishlardan oshgan, umrining o‘n besh yildan ortig‘ini lagerlarda o‘tkazayotgan Olimjon domla...” deya tasvirlanadi ota. O‘g‘il esa mafkuraviy jihatdan buzilgan inson, otaning fikri-tafakkuri, e‘tiqodiga zid ravishda –ateistik ruhda o‘sgan. Hikoyada otani qarg‘ishiga qolgan o‘g‘il – Kimsanboy oxir-oqibat halok bo‘ladi. Chunki u e‘tiqodlilardan emas edi. To‘g‘rirog‘i – sovetlarning josusi edi. Bundaylarning e‘tiqodi, qat‘iyati bo‘lmaydi. Manfaatga qarab o‘zgaraveradi.

To‘rtinchi xususiyati – hikoyaning voqeiyli. Ya‘ni tasvirlangan voqealar real – bo‘lib o‘tgan. Said Ahmad shaxsan o‘zi ko‘rgan va ishtirok etgan voqealar bayon qilingan. Bu yerda yolg‘oni yo‘q. Ishonarli

tasvirlangan. Hikoyada makon va zamon mutanosib, to'g'ri tasvirlangan: "Yangi kelganlar Shimol lagerlarida oylab oftob ko'rmay, ranglari siniqqan kishilar edi. Ularni bir-ikki oygina yoz bo'ladigan, oftob esa tuman orasidan xuddi doka orqasiga yoqilgan shamdek xira ko'rinadigan, bizda bahor oftobi charaqlab turgan shu kezlarda ham qish bo'roni uvillab turadigan joylardan olib kelishgan."

Hikoyaning *beshinchi badiiy xususiyati* bu "eng yovuz imperiya"ning mafkuraviy qiyofasi aniq tasvirlangani. Hikoyada "EE 3781" raqami yoniga "Kimsanboy Yolqinov" deb yozib qo'yilgan, "Mehribon otamiz Stalinga sodiq bo'lish orzusi...", "Uning odam bo'yi qilib chizilgan suvrati tagiga: "Pioner! Qahramon Kimsanboy Olimjonovga Salyut berib o'tishni unutma!"-deb yozib qo'yilardi. Butun O'zbekiston bolalari undan ibrat olishga, uning vatanparvarlik jasoratini takrorlashga qasamyod qilishardi." kabi tasvirlarda o'tmish tuzumi kirdikorlari birmuncha aniq ifoda etilgan. Yoki "Faktlarga "siyosiy tus berishni o'rgan. Ahmad Yassaviy degan reaksiyon sho'irni ko'klarga ko'tarib maqtashdi. Alisher Navoiy "Xamsa"ni, "Chor devon"ni yozganda Pushkinning xabash bobosi O'rta Yer dengizining janubiy qirg'oqlarida chig'anoq terib yurardi. Mirzo Ulug'bek Samarqandda Rasadxona barpo etgan paytlarda o'rislar xoxollarning malayi edi, chipta kovush kiyib yurishardi, deb yoz!" Mana shunday qaydlar orqali kitobxon 74 yil ulug'langan asli chirkin tuzumning mohiyatini anglab oladi.

Hikoyaning *oltinchi xususiyati* – hikoya obrazlarining muvaffaqiyatli ishlanganidir. Yozuvchi obrazni hatto kichik detallar yordamida ham ochib bera olgan. Mana masalan, Olimjon (ota) haqida: "Kechalari yettinchi lampa yorug'ida tong otguncha mutolaa qilar edi". Adib Olimjonning o'z shajarasining shahrisabzlik barlolaridan Mirzo Abduqodir Bedilga borib taqalishini yozadiki, bu uning naqadar nuqtadon ziyoli ekanligidan darak beradi... Uning boshchiligida "Bedilxonlik" kechalarining o'tkazilganligi juda noyob xususiyat. Chunki bunaqa adabiyot kechalari sanoqli kishilar tufayligina o'tkazilgan xolos.

Hikoyada Olimjon domlaning ismiga yarasha zukkoligi "G'amlarim shunchalik ko'pki, tuyaning ustiga ortsam, zindonga tashlangan kofirlar ozod bo'ladi" deb boshlanuvchi rivoyat talqinida ham yorqin ochib berilgan. Asarda soxta vatanparvarlik, Stalin, Kalinin kabi siyosiy jallodlarning manfur qiyofalari eslab o'tilgan tasvirlar ishonarli bayon qilingan. Kechagi moziy haqiqatlarini bilgan kishi ham, bilmagan kishi ham bu qiziqib o'qiydigan hikoya. Adib adabiyotshunos-olim Umarali Normatov bilan suhbatda o'z uslubi haqida juda to'g'ri aytgandi: "Shu paytgacha nimaiki yozgan bo'lsam, o'z yo'limdan borishga, baholi qudrat o'zimga xos uslubda yozishga intildim",-degan edi.[5. U. Normatov, "Yetuklik", 301-bet].

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning "Sarob" hikoyasi o'zbek hikoyachiligida o'ziga xos o'ringa ega. Adib bu asari orqali kechagi kun haqiqatlarini ochib beradi, dolzarb mavzuda qalam tebratadi, "qizil imperiya" mohiyatini yoritib beradigan detallarni keltiradi, va nihoyat, inson qadri naqadar ulug' qadriyat ekanligiga e'tiborni tortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Саид Аҳмад. "Уфқ". Трилогия. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976. – 688 б.
2. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Беш жилдлик. Бешинчи жилд. "Ҳақ сўзнинг кучи". Мақолалар. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989. – 272 б.
3. Шарафиддинов О. "Ижодни англаш бахти". ШАРҚ НМАК. Т.: 2004. 640 б.
4. Саид Аҳмадю "Киприкда қолган тонг": Қиссалар. Хотиралар. Хикоялар. — Т.: «ШАРҚ», 2008. – 206 б.
5. Норматов У. "Етуклик". Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Т.: 1982. 368 б.